

**TA'LIM JARAYONINING SAMARADORLIGIGA
ERISHISHDA PEDAGOGLARNING KREATIV SIFATLARGA EGA
BO'LISHINING MAZMUNI.**

Xolmatov Farxod Ne'matovich

*Maktabgacha va boshlang'ich yo'nalishlarda
masofaviy ta'lif kafedrasi o'qituvchisi.*

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'quv-tarbiyaviy faoliyatining samaradorligiga erishishda pedagoglarning kreativ sifatlarga ega bo'lislining mazmuni haqida so'z borgan.

Kalit so'zlar: pedagoglarning kreativlik qobiliyat, ijodiy faoliyatga yo'naltirish, faollik, tashabbus ko'rsatish, mustaqillik, hamkorlik qilish, o'zaro raqobatga dosh berish, muvafaqqiyatli g'alaba qozonish, kreativ tafakkur.

Abstract: This article talks about the content of creative qualities of pedagogues in achieving the effectiveness of educational activities.

Key words: creative ability of pedagogues, orientation to creative activity, activity, initiative, independence, cooperation, coping with mutual competition, successful winning, creative thinking.

KIRISH

Har bir pedagogning o'zini o'zi rivojlantirishi va o'zini o'zi namoyon eta olishi bevosita uning kreativlik qobiliyatiga egaligi bilan bog'liq. Odatda pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga ega bo'lislari pedagogik muammolarni hal qilishga intilish, ilmiy-tadqiqot ishlari yoki ilmiy loyihalarni amalga oshirish va o'zaro ijodiy hamkorlikka erishishlari orqali ta'minlanadi. Pedagog o'z-o'zidan ijodkor bo'lib qolmaydi. Uning ijodkorlik qobiliyat ma'lum vaqt ichida izchil o'qib-o'rganish, o'z ustida ishslash orqali shakllantiriladi va u asta-sekin takomillashib, rivojlanib boradi. Har qanday mutaxassisda bo'lgani kabi bo'lajak pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga ega bo'lislari uchun tarbiyalanuvchilik yillarida poydevor qo'yiladi va kasbiy faoliyatni tashkil etishda izchil rivojlantirib boriladi. Bunda pedagogning o'zini o'zi ijodiy faoliyatga yo'naltirishi va bu faoliyatni samarali tashkil eta olishi muhim ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ilmiy adabiyotlarda kreativlikning bir qancha tavsiflari mavjud. Amerikalik olim D. Veklerning fikricha, "Kreativlik" (lotincha kreatio-noyob fikrlash) fikrlashning shunday turiki, u shaxsga bir muammo yoki masala yuzasidan birdaniga bir qancha yechimlar paydo bo'lislini taqozo etadi va zerikarli fikrlashdan farq qilib, narsa va hodisalar mohiyatidagi o'ziga xoslik, noyoblik sifatlarini anglashga yordam beradi.

Taniqli olim M. N. Maxmutovning fikriga ko'ra, "...o'quv jarayonining tashkil etishning an'anaviy sxemasi talabaarning fikrlash qobiliyatini yetarli darajada rivojlantira olmaydi, uning bilimga bo'lgan extiyojlarini, fanga bo'lgan qiziqishlarini qondira olmaydi, faol

fikrlashni hamda bilishni e'tiqodga e'tiqodni esa ongli ijtimoiy maqsadga muvofiq faoliyatga aylantirishni ta'minlay olmaydi. Natijada shaxsning yetukligi, barkamolligi ta'minlanmaydi, uning yangi jamiyatga moslashuvi qiyinlashadi".

Kreativ ta`lim guruhda raqobat muhitini paydo qiladi, bilish quvonchi, o'zidagi ijobiy o'zgarishlarni xis qiladi, o'ziga va o'z bilimiga ishonch paydo bo'lishi, o'zini va boshqalarni xurmat qilish, o'zaro xamjihatlikka asoslangan qulay ijtimoiy-psixologik muhit yaratish imkonini beradi. Kreativ ta`limga asoslangan noan'anaviy darslar o'quvchining ta`lim-tarbiya olish motivlarini rivojlantirib boish orqali hamda o'quv-tarbiya jarayonini insonparvarlashtirish tamoyillarini amalga tatbiq etgan holda yuqori natijalarga erishishni ta'minlaydi.

Zamonaviy pedagogika va psixologiya fanida fikrlashni rivojlantirish muammosiga bag'ishlangan tadqiqotlar M.Davletshin, E.G'oziev, B.R.Qodirov, V.Karimova, Z.Nishanova, R.Sunnatova va boshqa psixolog olimlar tomonidan tashkil etilgan. Ayniqsa, pedagogika kollejlarida o'qitiladigan pedagogika fani kreativ ta`limni qo'llash uchun keng imkoniyatlarga ega bo'lib, unda bo'lajak o'qituvchilar shaxsiga xos bo'lgan faollik, tashabbus ko'rsatish, mustaqillik, hamkorlik qilish, o'zaro raqobatga dosh berish, muvafaqqiyatli g'alaba qozonishga ishonch tuyg'ularini tarbiyalash mumkin.

NATIJALAR

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim mazmunini takomillashtirishda o'ziga xos metodik, pedagogik, psixologik tayyorgarlik bilan ishslash davr taqazosiga aylandi. Chunki maktabgacha ta'lim mazmunini takomillashtirish keng ma'noli tushuncha bo'lib, uni samarali amalga oshirish maktabgacha ta'lim tashkiloti binosining holati, tarbiyachi-pedagoglar, tarbiyachi yordamchilari, ota-onalar hamda bolalarning ta'lim jarayonidagi ishtiroki innovatsion bo'lishi lozimligini talab etadi. "Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari" hamda "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturi asosida kompentensiyaviy yondashuv jarayonida pedagogik-psixologik, metodik, badiiy adabiyotlar soni va sifati, har bir yosh guruhiha mos va xos adabiyotlar bilan boyitib borish ham muhim masaladir. Bolalarni o'ynab turib o'ylashga undovchi muammoli vaziyatlarni o'yinlarda aks ettiruvchi kreativ ruhdagi ta'limiy rivojlantiruvchi o'yin markazlari tashkil etish va ular faoliyatini muvofiqlashtirishda ota-onalar va jamoatchilikning jalb qilinishi va boshqa shu kabi omillar maktabgacha ta'lim mazmunini oshiradi.

Zamonaviy sharoitda pedagogning kreativlik sifatlariga ega bo'lishi taqozo etadi. So'nggi yillarda etakchi xorijiy mamlakatlarning ta'lim tizimida o'quvchi va talabalarda kreativlik sifatlarini shakllantirish masalasiga alohida, jiddiy e'tibor qaratilmoqda.

MUHOKAMA

Pedagog o'z oldiga muammoli masalalarni qo'yish orqali mavjud bilimlari va hayotiy tajribalariga zid bo'lgan dalillar bilan to'qnash keladi. Buning natijasida o'z ustida ishslash, mustaqil o'qib o'rganishga nisbatan ehtiyoj sezadi. Tarbiyachilar mashg'ulotlarda tarbiyanuvchilarining erkin fikr yuritishlarini ta'minlay olishlari kerak. Xuddi shu holatdagina ularning fikrlari kreativlik kasb etadi. "Kreativlik darslarida tarbiyanuvchilar birligina "to'g'ri" javobni izlash o'rniha o'zlarini erkin va hotirjam sezishlari va yuzaga

kelgan muammolarga turli echimlarni izlab topishlari maqsadga muvofiqdir. Qancha ko‘p g‘oya va fikrlarni o‘rtaga tashlasalar, shuncha ko‘p g‘oyalarni kreativ bo‘ladi.

Tarbiyachi “Aqliy hujum” metodidan foydalanganlarida noaniqlikka duch kelishlari mumkin. Tarbiyalanuvchilarni to‘g‘ri yo‘lga yo‘naltirish va keyinchalik ularni mustaqil “sayohatga” qo‘yib yuborish ularda kreativ va, hattoki noaniq bo‘lsada, turli g‘oyalarni o‘ylab topishga bo‘lgan intilishni kuchaytiradi. Chak Djons aytganiday “Qo‘rquv xissining yuzaga kelishi kreativlikka asoslangan har qanday ishda mavjud; havotir kreativlikning xizmatkoridir”.

Tarbiyalanuvchilarni yo‘naltirish tarbiyalanuvchilarda o‘qituvchiga bog‘liq bo‘lib qolmay, ularda avtomatik ravishda harakat qilish ko‘nikmasini shakllantiradi. Tarbiyalanuvchilari jarayonni kichik alohida qism va bosqichlarga bo‘lib, yosh va tajribasiz tarbiyalanuvchilarni ruhlantirib, bu esa o‘zz o‘rnida kreativlik ko‘nikmasining shakllanishaga o‘z ta’siri o‘tkazadi (Amabile, 1998). O‘qituvchilar tarbiyalanuvchilarga manbalar bilan ta’minlash, maslahat berish, yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish, ularning progress va muvafaqqiyatini aniqlashda mezonlarni ishlab chiqishda murabbiy sifatida xizmat qiladilar.

Shuningdek, yuqori kurs tarbiyalanuvchilari nafaqat ichki kreativlikni shakllantirish, balki kichik guruhlarda ishslash, kreativlik va sharhlar berishga qiziqtira oladilar ham (m: ong sayohati, tasavvur chegarasi, kelajakdagi muammolarni echish, yangilik ochmoq va kashf etmoq)”. Kreativlik potensialiga ega pedagog o‘zida quyidagi malakalarni namoyon eta oladi:

- + bajariladigan vazifaning mohiyati va ahamiyatini belgilay bilish;
- + masalaning qo‘yilishini tahlil qila olish;
- + masalani hal qilish rejasini tuzish;
- + masalani hal qilishda samarali metodlar (analiz, sintez, induksiya, deduksiya, taqqoslash va b.)larni qo‘llash;
- + masalani hal qilish usullarini tanlay olish;
- + qabul qilingan qarorning to‘g‘riligini asoslash va qayta tekshirish;
- + masalani hal qilishda kichik tadqiqot (izlanish)ni olib borish;
- + masalani hal qilish sharoiti, jarayonning borishi va masala yechimi yakunlarini umumlashtirishga oid dalillarni rasmiylashtirish.

NATIJA

Pedagogning kreativlik sifatlariga ega bo‘lmasligi tufayli tarbiyalanuvchilar ham qiziqrarli va ajoyib g‘oyalarga ega bo‘lsalar-da, biroq, ularni ifodalashda sustkashlikka yo‘l qo‘yadi. Buning sababli ta’lim jarayonida qo‘llanilayotgan metodlar tarbiyalanuvchilarda erkin, mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishgaxizmat qilmasligi bilan belgilanadi. Muallif tomonidan tavsiya qilingan vosita va strategiyalar tarbiyalanuvchilarda kreativlikni rivojlantirishda o‘qituvchilar uchun qo‘l keladi hamda tarbiyalanuvchilarda o‘quv fanlarini o‘rganishga bo‘lgan qiziqish, intilishni rivojlantiradi.

Kreativlik (lot., ing. “create” – yaratish, “creative” yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi g‘oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati ma`nosini ifodalaydi. Shaxsning

kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg`ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo`ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Shuningdek, kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida aks etadi. Qolaversa, kreativlik zehni o`tkirlikni belgilab beradi.

P.Torrens fikricha, kreativlik: muammoga yoki ilmiy farazlarni ilgari surish; farazni tekshirish va o`zgartirish; qaror natijalarini shakllantirish asosida muammoni aniqlash; muammo echimini topishda bilim va amaliy harakatlarning o`zaro qarama-qarshiligiga nisbatan ta`sirchanlikni ifodalaydi.

Shaxs ijodkorlik sifatlarini rivojlantirishga asosiy metodologik va kontseptual yondashuvlar, kreativ shaxs individual sifatlarini shakllantirishning psixologik xususiyatlari, uzlusiz ta`lim tizimida pedagoglar kasbiy ijodkorligini tashkil etish texnologiyalari bilan bog`liq masalalar yoritilgan.

Bilish faoliyati ko`p qirrali, murakkab jarayon bo`lib, uning ta`limni amalga oshirishdagi samaradorligi pedagog qobiliyati, izlanuvchanligi, tafakkuri, kuzatuvchanligi va ijodiy yondashuviga bog`liq. Shuning uchun ham bilish jarayonida ijod muhim o`rinni egallaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Muslimov N., Usmonboyeva M., Sayfurov D., To`rayev A. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari.-T.: 2015.-122 bet
2. Djurayeva B.R., Tojiboyeva X.M., Nazirova G.M. Maktabgacha yoshdagি bolalarga ta`lim-tarbiya berishning zamonaviy tendensiyalari.-T.: O`zPFITI,2015.-115 b
3. Ishmuhamedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta`lim samaradorligini oshirish yo'llari. – T.: TDPU, 2005.
4. Golish L.V, Fayzullaeva D M. Pedagogik texnologiyalarni loyixalashtirish va rejalashitirish.- T.: TDIU, 2010 y. 149- bet.
5. Ziyomuxammedov, Tojiev M. Pedagogik texnologiya- Zamonaviy o'zbek milliy modeli. – T.: " Lider Press" , 2009. 104 – bet.
6. Choriyev R. Yangi pedagogik texnologiya-ta`lim tarbiya sifat va samaradoriligin oshirish omili. // Xalq ta`limi jurnali. 2004., 4 son. 12 bet.
7. Muslimov N. O'qituvchi shaxsini shakllantirishning nazariy- metodologik omillari//Xalq ta`limi , 2004 3 son 73- bet.